



# UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific  
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 5

Published: 05.05.2025  
<https://universaljournal.uz>



## International indexes

GOOGLE SCHOLAR  
CROSSREF (OAK BAZA)  
ZENODO  
OPEN AIRE  
EUROPUB  
RESEARCHGATE (OAK BAZA)  
SJIF

## KASALLIK TARQATUVCHI HASHAROTLAR

**Ibrohimova Iroda Ibrohimjon qizi**

Andijon davlat universiteti

**Uzbekistan**

[Ibrohimovairodal4@gmail.com](mailto:Ibrohimovairodal4@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kasallik tarqatuvchi hasharotlarning tuzilishi, tarqalishi, odam va hayvonlarda turli xil kasalliklarni tarqatishi haqida ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** burgalar, kanalar, qo'tir kanalar, pashshalar, chivinlar.

**Аннотация:** В статье представлена информация о структуре, распространении и передаче различных заболеваний человека и животных насекомыми-переносчиками болезней.

**Ключевые слова:** блохи, клещи, чесоточные клещи, мухи, комары.

**Abstract:** This article provides information about the structure, distribution, and transmission of various diseases in humans and animals by disease-carrying insects.

**Keywords:** fleas, ticks, scabies mites, flies, mosquitoes.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Ibrohimova , I. (2025). DISEASE TRANSMITTING INSECTS. Universal International Scientific Journal, 2(5), 18–20. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1824>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Kasallik tarqatuvchi hasharotlar (vektorlari) turli infeksiyalarning, shu jumladan, bakterial, virusli va parazitlar kasalliklarining tarqalishiga sabab bo'ladi. Ular asosan yovvoyi tabiatda, shuningdek, odamlar va chorvalarda kasalliklarni yuqtiruvchi omil sifatida faoliyat ko'rsatadi [1; 6-8 b.]. Parazit va kasallik tarqatuvchi hasharotlar: burgalar, chivinlar, iskaptoparlar, kanalar ayrim pashshalar va qandalalar odam va hayvonlar qonini so'radi. Bo'kalar qoramollar, qo'ylar va yilqilar terisi ostida, burun bo'shlig'i va oshqozonida parazitlik qiladi. Hasharotlar kasallik tarqatuvchi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Bezgak chivini bezgak parazitini, iskaptoparlar leyshmaniyani, bitlar terlamani, burgalar o'lat kasalligi qo'zg'atuvchisini odamga yuqtiradi. Uy pashshalari turli xil bakteriyalar va gelmintlarni tarqatadi [2; 15-23 b.].

Burgalar (lotincha: Siphonaptera)-qon so'ruvchi hasharotlar turkumi. Uzunligi 1-6 mm, urg'ochisi erkagidan yirikroq. Tanasi ikki yondan kuchli siqilganligidan hayvonlarning yungi va pati orasida yengil va tez harakat qiladi. Qanotlari ikkilamchi reduksiyaga uchragan. Ko'pchilik turlarining bir juft oddiy ko'zi bor. Og'iz organi kesuvchi, sanchuvchi va so'ruvchi tipda. Oyoqlari (ayniqsa keyingisi) yaxshi rivojlangan, sakrovchi. Urg'ochilari pol tirqishlari, to'shamalar osti, devor yoriqlari yoki kemiruvchilar iniga bir necha o'nta tuxum qo'yadi. Tuxumlardan oyoqsiz, chuvalchangsimon, tanasi tuk bilan qoplangan qurtlar chiqadi. Ular pilla ichida g'umbakka aylanadi. Qurtlar hayvonlarning organik qoldiqlari va chirindilar bilan oziqlanadi. Odam burgasi esa 2 yilgacha yashaydi. 1400 ga yaqin turi, shundan 310 turi O'rta Osiyoda uchraydi [4; 72-76 b.]. Burgalar

issiq qonli hayvonlar va odamda parazitlik qiladi.

Kanalar asosan quruqlikda yashaydi. Ular orasida odam va hayvonlar tanasida parazitlik qilib hayot kechiradigan turlari ko'p. Kanalar tanasi yaxlit, bo'g'imlarga bo'linmagan. Yurish oyoqlar 4 juft, og'iz organlari sanchib-so'rishga moslashgan. Kanalar to'liq o'zgarishlar bilan rivojlanadi. Ularning lichinkasiga 3 juft oyoqlari bo'lib, 1 marta po'st tashlaganda keyin oraliq bosqich-nimfaga, nimfa tullagach voyaga yetgan kanaga aylanadi. Qo'tir kana hayvonlar va odamlarda qo'tir kasalligini qo'zg'atadi. Ular mayda (bo'yi 0,2-0,5 mm) bo'lib, urg'ochilari terini yemirib oziqlanadi, teri ostiga 10-15 mm kirib, kana yo'lini hosil qiladi. Bu ko'roq terining yuqori joylari: barmoqlar, bilak bilan tirsak orasi, qo'litiq ostida. Urg'ochi kana shu joylarga tuxum qo'yadi [3; 33-35 b.]. Tuxumdan chiqqan yosh kanalar teri ustiga chiqib, o'ziga yangi yo'l ochadi. Kana yuqqan joyining terisi qattiq qichib, qashlayverish natijasida qo'tir bo'lib qoladi. Qo'tir kanalar it, echki, qo'y, ot, cho'chqalardan odamga yuqishi mumkin. Kana sog'lom odamga zararlangan odamning qo'li orqali ham yuqadi. Buning oldini olish uchun qo'ni toza saqlash, shaxsiy gigeniya choralari rioya qilish zarur. Qo'tir kanalarga qarshi kurashishda terining qo'tir bo'lgan joyiga turli malham dorilar suriladi [5; 25-28 b.].

Pashshalar axlatlar, ovqat qoldiqlari, odam va hayvonlar chiqindilari hamda turli oziq-ovqat mahsulotlari ustiga qo'nib, kasallik tug'diruvchi xilma-xil organizmlarni tarqatadi. Uy pashshalari ichburug', qorin tifi va turli yiringli kasalliklar, o'pka sili, ko'z kasalliklari (konyuktivit) hamda og'ir virusli kasallik-poliomiyelit qo'zg'atuvchisini, shuningdek

ichakda parazitlik qiluvchi gelmintlar tuxumini tarqatishi aniqlangan.

Chivinlar tabiatda juda keng tarqalgan, odam va hayvonlarning qonini so'ruvchi hashorot hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida chivinlarni 10 ga yaqin turi tarqalgan. Chivinlar erkagi gul nektari bilan urg'ochisi esa qon so'rib oziqlanadi. Urg'ochi chivin tuxum qo'ygandan so'ng yangi tuxum qo'yishi uchun yangi qon so'rishi kerak. Urg'ochi chivinning so'lagi tarkibida og'riqsizlantiruvchi va qonni ivitmaydigan moddalar bo'ladi. Shuning uchun chivin chaqqanda dastlab sezilmaydi, lekin bir ozdan keyin og'riq sezilib, chivin chaqqan joy shishib qizaradi va qattiq qichishadi. Chivinlar orasida bezgak chivini bezgak kasalligi qo'zg'atuvchi bezgak plazmodiyasining tashuvchisi hisoblanadi. Bezgak tropik va

subtropik hududlarda keng tarqalgan; har yili minglab kishilarning o'limiga sabab bo'ladi [7; 83-86 b.].

#### XULOSA

Xulosa qilib aytqanda, Hashorotlarning kasallik tarqatishdagi roli keng va murakkab bo'lib, bu muammoni yechishda global va mahalliy darajadagi muvofiqlik zarur. Hashorotlar orqali tarqaladigan kasalliklar ko'plab turli xil patogenlarni (bakteriyalar, virusli, parazitlar) o'z ichiga oladi. Masalan: chivinlar, pashshalar va burgalarning kasalliklarni tarqatishdagi roli jiddiy xavf tug'diradi. Tadqiqot natijalari, bu zararkunandalar orqali tarqaladigan yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun samarali kurash usullarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O.Mavlonov va boshqalar. Umurtqasizlar zoologiyasi. Toshkent. «O'zbekiston» 2002 y.
2. Dadaev S.D. Parazitologiya. -Toshkent. 2006
3. G.Abduraxmonova, S.Dadayev "Umumiy parazitologiya" fanidan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent "Go To Print" 2020.
4. Eshova X.S., Mavlonov O.M. Umurtqasizlar zoologiyasi. -Toshkent, 2006.
5. Qulmamatov A. Umurtqasiz parazit hayvonlar. -T.; «O'qituvchi», 1988.
6. B.A.Mo'minov., X.S.Eshova., M.SH.Raximov. Umurtqasizlar zoologiyasidan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent-2005.
7. S.P. Naimov. «Umurtqali hayvonlar zoologiyasi» 1995 y.

#### Internet saytlar:

1. [www.cdg.gov](http://www.cdg.gov)
2. [www.encyclopedia.com](http://www.encyclopedia.com)
3. [www.azkurs.org](http://www.azkurs.org)